

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJda 2026-yilning yarim yilligi uchun korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida

UMUMIY HISOBOT¹

I. Jamiyatning korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to‘g‘risida umumiy axborot

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi «Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-240- sonli qaroriga muvofiq **korrupsiyaviy omillarni aniqlash, baholash va bartaraf etish** ishlari tashkil etish, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashda inson omilini qisqartirish va tegishli funksiyalarni raqamlashtirish, shaffoflikni ta‘minlash, jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘yish maqsadida hisobot davrida temir yo‘l tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishlari O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentlik bilan birgalikda «**E-Anticor.uz**» elektron platformasi orqali amalga oshirildi. Buning natijasida:

- “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati korrupsiyaviy **xavf-xatarlar xaritasi**;
- “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha **dasturi**;
- “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo‘lgan tuzilma va **lavozimlar ro‘yxati** ishlab chiqilib Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligiga tahlil uchun yuborildi.

2026-yilning II choragi davomida korrupsiyaga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirish uchun hokimiyat organi vakillari, IIB va Transport prokuraturasi mas‘ul xodimlari, sohaga doir mutaxassislar ishtirokida davra suhbatlari, videokonferensiyalar, jumladan “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ hududiy bo‘linmalarida **35 ta yig‘ilish tadbirlari** amalga oshirilib, ularda **3200dan ortiq** ishchi-xodimlar ishtiroki ta‘minlandi.

II. Siyosat va tartib taomillar

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ boshqaruvi raisining 2022-yil 30-dekabrda 1228-N-sonli buyrug‘i asosida Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha **Siyosati** tasdiqlangan.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ boshqaruvi raisining 2025-yil 12-sentabrdagi 438-N-sonli buyrug‘i asosida jamiyatning quyidagi korrupsiyaga

¹ “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati asosiy faoliyat korxonalari

qarshi kurash bo'yicha **asosiy ichki idoraviy hujjatlari** qabul qilingan:

1. "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti;
2. "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom;
3. "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatida aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'grisida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamenti;
4. "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish va odob-axloq sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha Yo'riqnoma;
5. "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatida kontragentlarni tekshirishga oid Yo'riqnoma;
6. "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatida ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma;
7. "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatida Korrupsiyaga qarshi tartib taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti;
8. "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha Nizom;
9. "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatida xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlarini o'tkazish bo'yicha Reglament qabul qilindi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish hamda ularning **ta'qib qilinmasligi** kafolatlarini ta'minlash maqsadida Jamiyat boshqaruvi raisining 2026-yil 15-iyundagi 304-N-son buyrug'i bilan "Jamiyatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish hamda ularning ta'qib qilinmasligi kafolatlari to'g'risida"gi **Reglament** tasdiqlandi.

Shuningdek, jamiyatning 2022-yil 25-oktabrdagi "**Jamiyatning odob-axloq qoidalariga rioya etilishiga doir ichki idoraviy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida**"gi 1015- N-sonli buyrug'i asosida quyidagi hujjatlar qabul qilingan:

- "O'zbekiston temir yo'llari" AJ xodimlarining **odob-axloq Kodeksi**;
- Jamiyatning **odob-axloq komissiyasi** to'g'risidagi nizom;
- Jamiyatning **odob-axloq komissiyasi tarkibi**.

III. Xavf-xatarlarni baholash

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "**Davlat**

boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi 240-sonli Qarori ijrosi yuzasidan «O'zbekiston temir yo'llari» AJ va uning barcha tarkibiy tuzilmalari bo'yicha **55 ta** asosiy vazifa va funksiyalarining korrupsiyaga moyillik darajasi baholanib, natijalarga ko'ra, **8 ta "yuqori", 26 ta "o'rta"** va **21 ta "past"** darajadagi xavf-xatarlar aniqlandi hamda ularni oldini olish va bartaraf etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar Dasturi ishlab chiqildi.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib taomillar. Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish

"O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatida 2026-yil 1-yarim yilligida O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash maqsadida amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tegishli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Jumladan, Jamiyat rahbariyati tomonidan Jamiyat tizimidagi korxona va tashkilotlarga xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyalarni to'ldirish yuzasidan tegishli telefonogrammlar yuborildi.

Bugungi kun holatiga ko'ra jamiyat xodimlari tomonidan: 1550 ta yillik deklaratsiya, 1027 ta ishga qabul qilishdagi deklaratsiya, 2138 ta boshqa ishga o'tkazilgandagi deklaratsiyalar to'ldirilgan.

Taqdim etilgan deklaratsiyalar Jamiyat va uning tizim tashkilotlari maxsus bo'linmalari tomonidan belgilangan tartibda ko'rib chiqilib, tahlil qilinib, tahlil natijalariga ko'ra manfaatlar to'qnashuvi riski aniqlangan holatlar yuzasidan Jamiyatning odob-axloq komissiyasiga tegishli takliflar kiritilib, mazkur masalalar bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilindi.

Shu bilan birga, Jamiyat tizimida o'tkazilgan o'rganishlar va tekshiruvlar natijasida 2026-yilda 4 ta mavjud manfaatlar to'qnashuvi va 9 ta ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holati aniqlanib, ular bo'yicha tegishli choralar ko'rildi.

Jumladan: -Jamiyat tizimidagi tashkilotlarda 3 ta holatda rahbar va unga bevosita bo'ysunuvchi yaqin qarindoshi o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi holati aniqlanib, tegishli qaror asosida mehnat shartnomalari bekor qilindi;

-1 ta holatda xodimning bir vaqtning o'zida o'zaro bog'liq xo'jalik yurituvchi subyektlarda rahbar lavozimida faoliyat yuritishi aniqlanib, mazkur xodim egallab turgan lavozimidan ozod etildi

- 9 ta holatda yaqin qarindoshlar o'rtasida ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holati aniqlanib, tegishli xodimlarning lavozim yo'riqnomalari qayta ko'rib chiqildi, boshqa mansabdor shaxsning bevosita bo'ysunuviga o'tkazildi.

V. Korruptsiyaga qarshi qoidalarni jamiyat shartnomalariga kiritish

Jamiyat tomonidan 2026-yilning II choragi davomida tuzilgan shartnomalar O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy- huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni asosida amalga oshirilgan. Unga ko'ra xo'jalik shartnomalariga korruptsiyaga qarshi qoidalar kiritilishi hamda ko'rsatilgan shartlar amaldagi qonunchilik asosida tuzilgan va shartlarni buzgan tomon qonun oldida javob berishi ko'zda tutilgan.

VI. Kontragentlarni tekshirish

Jamiyat va uning tizim tashkilotlari tomonidan 2026-yil 1-yarim yilligida reja asosida Jamiyatning boshqarma, korxona va tashkilotlari o'rganilganda davlat xaridlarini amalga oshirish uchun jami 16 065 dona xo'jalik shartnomalar imzolanganligi aniqlandi, jumladan:

- Markaziy apparatda – 826 ta;
- Tarkibiy tashkilotlarida – 15 239 ta.

Jamiyat va uning tizim tashkilotlari mas'ul xodimlari tomonidan jami 1027 ta kontragentlar tekshirilgan bo'lib shundan, 33 tasi markaziy apparatda, 994 ta tarkibiy tashkilotlarga to'g'ri keladi.

Jami 89 ta kontragentga salbiy xulosalar berilgan 938 ta kontragentga ijobiy xulosalar berilgan.

VII. Ishga nomzodlarni tekshirish

Hisobot davrida ma'lumotlarga asosan jamiyatning markaziy apparat va tarkibiy tashkilotlarga ishga kirish uchun nomzodlar ustidan o'tkazilgan tekshiruvlar soni 914 tani tashkil etadi.

Ular quyidagicha kesimga ega:

- Markaziy apparat – 56 ta
- Tarkibiy tashkilotlari – 858 ta (shundan 797 ta nomzodga ijobiy va 61 ta nomzodga salbiy xulosa berilgan).

VIII. Ta'lim va komunikatsiya

Korruptsiyaga qarshi kurashish muntazam ravishda huquqiy ongini va madaniyatni yuksaltirishni talab etadi. Shu bois, Jamiyat xodimlari huquqiy savodxonligi va ongini rivojlantirish, halollik, poklik, ko'nikmalarini singdirish orqali korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida yuqori rahbariyat, bo'lim boshliqlari, komplayens tuzilmalari uchun "O'zbekiston temir yo'llari" AJning 2026 yil 11 martdagi HOK-40-sonli buyrug'i bilan "ISO 9001 bo'yicha sifat menejmenti tizimi (SMT) va iqtisodiyot samaradorligini oshirish bo'yicha rahbarga ko'rsatmalar. Strategik boshqaruv, BSC, Kaizen,

Lean Production” mavzusidagi xorijiy o‘quv kursi tashkil etildi.

Jamiyat xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tizimli o‘qitishni tashkil etish maqsadida yillik reja-grafiklar, o‘quv dasturlari, mavzular tematikasi, test savollari ishlab chiqildi hamda o‘quv mashg‘ulotlari uchun taqdimot (prezentatsiya) materiallari tayyorlandi.

Hisobot davrida Jamiyat tizimida faoliyat yuritayotgan barcha xodimlar korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha maxsus o‘quv kurslariga jalb etildi. Natijada 38 ming nafardan ortiq xodim mazkur yo‘nalishda o‘qitildi.

Hisobot davrida Jamiyatda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini yanada takomillashtirish hamda mazkur yo‘nalishda faoliyat yuritayotgan mas‘ul xodimlarning kasbiy salohiyatini oshirishga alohida e‘tibor qaratildi. Shu maqsadda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlari "Smart Menejment" xalqaro o‘quv kompaniyasi tomonidan tashkil etilgan "ISO 37001:2025 standarti asosida korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimini ishlab chiqish" mavzusidagi malaka oshirish kursida ishtirok etdilar. Jumladan, markaziy apparatdan 10 nafar, tizim tashkilotlaridan 3 nafar mas‘ul xodim ushbu o‘quv kursini muvaffaqiyatli tamomladi.

Shuningdek, korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan lavozimlarda faoliyat yurituvchi xodimlarning malakasini oshirishga ham alohida e‘tibor qaratildi. Xususan, markaziy apparatdan 30 nafar hamda tarkibiy tashkilotlardan 18 nafar xodim "Smart Menejment" xalqaro o‘quv kompaniyasi tomonidan tashkil etilgan "ISO 37001:2025 standarti asosida korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimini ishlab chiqish" mavzusidagi malaka oshirish kursida ishtirok etib, korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimini xalqaro standartlar asosida joriy etish, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash hamda ichki nazorat mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha zarur bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ldilar.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-81-son qarori bilan tasdiqlangan Reyting baholash tartibi to‘g‘risidagi nizomga kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlarning mazmun-mohiyatini xodimlarga yetkazish maqsadida 2026-yil 17-iyun kuni o‘quv-seminari tashkil etildi. Unda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari mas‘ul xodimlari, kadrlar bo‘linmalari vakillari, davlat xaridlari yo‘nalishiga mas‘ul xodimlar hamda boshqa tegishli mutaxassislar faol ishtirok etib, reyting baholash tizimida joriy etilgan yangi talablar va ularni amaliyotga tatbiq etish masalalari yuzasidan batafsil tushuntirishlar oldilar.

Bundan tashqari, joriy yilning “Temiryo‘linfratuzilma” AJ **"Termiz MTU"** filialida 17-mart kuni korrupsion harakatlarning har qanday shakl va

ko'rinishlariga nisbatan jamoada keskin murosasizlikni shakllantirishga bag'ishlangan **“Korrupsiyaga yo‘q deng”** mavzusida filiali boshlig'i birinchi o'rinbosari Z.S.Jumaniyazov, Termiz transport prokuraturasi mas'ul xodimi D.O.Isroilov, Transportda XTB jinoyat qidiruv bo'lim boshlig'i kapitan U.A.Aliqulov rahbarligida **seminar-trening** o'tkazildi. O'tkazilgan yig'ilish davomida yig'ilish qatnashchilariga korrupsion holatlar va unga qo'llanuvchi huquqiy choralar to'g'risida tushunchalar berildi.

IX. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar

Hisobot davrida “O'zbekiston temir yo'llari” aksiyadorlik jamiyati korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasiga 2026-yil I yarim yili davomida aloqa kanallari orqali jami 22 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, markaziy apparat va tashkilotlar kesimida quyidagicha ko'rinishga ega.

- Markaziy apparat -13 ta
- Tarkibiy tashkilotlar:
- “Temiryo‘linfratuzilma” AJ - 4 ta
- “O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” AJ - 4 ta
- Harbiylashtirilgan qo'riqlash boshqarmasi – 1 ta

“O'zbekiston temir yo'llari” aksiyadorlik jamiyati korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasiga 2026-yil I yarim yili davomida kelib tushgan murojaatlar o'rganilib, 4 ta murojaat yuzasidan mualliflarga javob xati yuborilgan, 13 ta murojaat bo'yicha xizmat tekshiruvi o'tkazilib, tegishli xulosalar taqdim etildi.

O'tkazilgan xizmat tekshiruvlari manbalari tahliliga ko'ra, 7 ta tekshiruv huquqni muhofaza qiluvchi va prokuratura organlari ma'lumotlari asosida, 3 ta tekshiruv Jamiyat rahbari topshirig'i asosida, 3 ta tekshiruv jismoniy shaxslar murojaatlari orqali kelib tushgan murojaatlar asosida o'tkazilgan.

X. Monitoring va nazorat

“O'zbekiston temir yo'llari” AJ boshqaruv raisining 2026-yil 7-yanvardagi “Jamiyatda korrupsiyaga qarshi talab va tartib-taomillariga rioya etilishi ustidan monitoring qilish reja-jadvalini tasdiqlash to'g'risida”gi 172-N sonli buyrug'i bilan korrupsiyaga qarshi talab va tartib-taomillariga rioya etilishi ustidan monitoring qilish reja-jadvali ishlab chiqildi hamda u asosda bir qator tashkilotlarda monitoring va nazorat ishlari olib borildi.

Monitoring va tahlil natijasida jami 4 ta mavjud manfaatlar to'qnashuvi holatlari hamda 9 ta ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlanib, ular

bo'yicha tegishli choralar ko'rildi.

Jumladan:

-Jamiyat tizimidagi tashkilotlarda 3 ta holatda rahbar va unga bevosita bo'ysunuvchi yaqin qarindoshi o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi holati aniqlanib, tegishli qaror asosida mehnat shartnomalari bekor qilindi;

-1 ta holatda xodimning bir vaqtning o'zida o'zaro bog'liq xo'jalik yurituvchi subyektlarda rahbar lavozimida faoliyat yuritishi aniqlanib, mazkur xodim egallab turgan lavozimidan ozod etildi

- 9 ta holatda yaqin qarindoshlar o'rtasida ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holati aniqlanib, tegishli xodimlarning lavozim yo'riqnomalari qayta ko'rib chiqildi, boshqa mansabdor shaxsning bevosita bo'ysunuviga o'tkazildi.

Monitoring ishlari xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qabul qilingan ichki idoraviy hujjatlardan xabardorligi, ichki idoraviy hujjatlarning o'z faoliyatiga tatbiq etilganligi, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasiga mas'ul xodim tayinlanganligi, mehnat shartnomasida korrupsiyaga qarshi kurashishga doir bandlarning mavjudligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligiga topshiriladigan hisobot indikatorlarining to'g'ri to'ldirilayotganligi, shartnomalarni tuzishda xarid tartib-taomillariga amal qilinishi, aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarni ko'rib chiqilishi yuzasidan o'tkazildi.

XI. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari

2026-yilning I yarim yilligida "O'zbekiston temir yo'llari" AJda moliyaviy mablag'lardan foydalanishning qonuniyligi va samaradorligini ta'minlash, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash hamda moliyaviy xato va qoidabuzarliklarning oldini olish maqsadida jami 11 ta nazorat tadbiri, shundan 3 ta rejali va 8 ta rejadan tashqari o'rganish o'tkazilgan.

Nazorat tadbirlari natijasida 6 ta korrupsiyaviy omil (xavf-xatar) aniqlangan. Mazkur holatlar tahlili Jamiyat faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlar, asosan, mehnatga haq to'lash, tashish xizmatlari uchun to'lovlarni hisoblash, xarid qilingan mahsulotlarni qabul qilish, to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish, xarid shartlari va texnik talablarni shakllantirish hamda manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va oshkor qilish jarayonlarida mavjudligini ko'rsatgan.

Aniqlangan qoidabuzarliklar natijasida Jamiyat manfaatlariga yetkazilgan zarar va moliyaviy xato-kamchiliklar miqdori 1 265 367 200 so'mni tashkil etgan bo'lib, shundan 1 265 mln. so'm undirilgan. Shuningdek, nazorat tadbirlari natijasida 7 948 mln. so'mlik mablag'larning maqsadsiz yoki qonunchilik talablariga zid sarflanishining oldi olingan.

O'tkazilgan tekshiruvlar natijasida **4 nafar xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan, kamida 7 nafar xodimga hayfsan, kamida 10**

nafar xodimga ish haqidan jarima qo'llanilgan. Shuningdek, 2 ta tekshiruv natijasida keltirilgan vajlar o'z tasdig'ini topmagan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi **Hisob palatasining** yagona axborot tizimlari yordamida **masofaviy auditi natijasida** Jamiyat manziliga kelib tushgan risk (xavf)larni bartaraf etish choralari amalga oshirildi. Xususan:

- Manfaatlarni to'qnashuvi bir xil IP manzillar – **40 ta xavf**;
- Affillanganlik holati bir xil IP manzillar – **2 ta xavf**;
- Affillanganlik (tanlov va auksion jarayonida ishtirokchilar ta'sischi yoki direktori bir shaxs bo'lgan holatlar) – **4 ta xavf**;
- “Manfaatlarni to'qnashuvi — yetkazib beruvchi rahbari/ta'sischi “O'TY” tizimida ham rahbar bo'lishi yoki xarid komissiyasi a'zolari va rahbarlarning yaqin qarindoshlariga tegishli korxonalar bilan shartnoma tuzilishi holatlari” – **11 ta xavf**;
- Davlat ulushi mavjud tashkilotlarida nepotizm tahlili (yaqin qarindoshlarning biri birining bo'ysunuvida ishlash holatlari)– **4995 ta xavf**;
- Davlat mulklarini ijaraga berishda kommunal to'lovlarni hisobga olmaslik – **5 ta xavf**.

Korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlardan kelib chiqib korrupsion **xavf-xatarlarni minimallashtirish** bo'yicha ko'rilgan choralar quyidagilardan iborat:

1. Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha choralar tasdiqlandi;

2. Jamiyat va tizim tashkilotlarida korrupsiya, moliyaviy suiiste'molchilik va boshqa qonunbuzilish alomatlari mavjud bo'lgan holatlar bo'yicha moliyaviy operatsiyalar ma'lumotlarini chuqur tahlil qilish asosida forenzik audit o'tkazilishini jadallashtirish;

3. Jamiyatning biznes jarayonlarini markazlashtirish, moliyaviy va boshqaruv hisobini takomillashtirish hamda tashqi axborot tizimlari bilan integratsiyani ta'minlash maqsadida ERP tizimini joriy etish choralari amalga oshirilmoqda;

4. Yo'lovchilarga ko'rsatiladigan xizmatlarda inson omilini kamaytirish, ochiqlik va shaffoflikni oshirish maqsadida elektron va onlayn xizmatlarni kengaytirish, imtiyozli va chegirmali chiptalarni onlayn rasmiylashtirish imkoniyatlarini takomillashtirildi;

5. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish hamda ularning ta'qib qilinmasligi kafolatlarini belgilovchi Reglament 2026-yil 15-iyundagi 304-N-son buyruq bilan tasdiqlandi;

6. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlari va korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlarda faoliyat yurituvchi xodimlarni maxsus va chuqurlashtirilgan o'quv kurslarida o'qitish ishlarini tashkil etildi;

7. Korrupsiya faktlariga doir aloqa kanallari orqali kelib tushgan har bir murojaatni belgilangan tartib va muddatlarda ko'rib chiqish, asoslar mavjud bo'lganda xizmat tekshiruvlari va o'rganishlar o'tkazish hamda aniqlangan holatlar bo'yicha qonuniy choralar ko'rilishi ta'minlandi;

8. Jamiyat va tizim tashkilotlarida mehnatga haq to'lash, tashish xizmatlari uchun to'lovlarni hisoblash, tovar-moddiy boyliklarni xarid qilish, qabul qilish va hisobga olish, shartnomaviy munosabatlar hamda korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan boshqa yo'nalishlarda maqsadli nazorat va monitoring tadbirlari o'tkazildi.

XII. Xulosalar

Korrupsiyaga qarshi kurashish faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlar yoki davlat idoralarining vazifasi emas. Bu — har bir fuqaroning, har bir oilaning, har bir davlat va jamoat tashkilotining ma'naviy burchi bo'lib, istiqbolli kelajak uchun eng katta hissa qo'shadigan omillardandir.

Shunga ko'ra, jamiyatda mehnat qilayotgan har bir rahbar va xodimlar:

korrupsiya holatlarining har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishga hamda o'z xizmat vazifalarini halol va xolis bajarishlari;

korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiyaviy holatlarning barvaqt oldini olish bo'yicha ishlarni samarali tashkil etishda faollik va tashabbuskorlik ko'rsatishlari;

korrupsiyaga doir huquqbuzarlik holatlariga duch kelganlarida bu to'g'rida Jamiyat rahbariyatiga aloqa kanallari orqali murojaat qilishlari;

manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan yoki kelishi mumkin bo'lgan taqdirda, o'zlarining bevosita rahbarini darhol xabardor qilishlari;

raqamli texnologiyalar davrida ulardan jadal foydalangan holda inson omilini kamaytirish, soha faoliyati shaffofligini ta'minlash hamda korrupsiyaning barvaqt oldini olishlari lozim bo'ladi.

XIII. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi

“O'zbekiston temir yo'llari” aksiyadorlik jamiyati tizimida ham davlat rahbarining korrupsiyaga qarshi kurashishga doir tashabbuslarini qo'llab quvvatlagan holda mamlakatimiz va jamiyatimiz ravnaqi yo'lida birlashishimiz, jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashishda amalga oshirayotgan ishlarimizni

og'ishmay davom ettirishimiz joiz sanaladi. Xususan:

Xodimlar tomonidan ishga qabul qilishda talab etiladigan hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonida tashkilot obro'siga jiddiy zarar yetkazadigan hamda rahbariyatning ham javobgarlikka tortilishi ehtimolini yuzaga keltiruvchi har qanday xatti-harakatlardan o'zlarini tiyishlari hamda korrupsiyaga murosasiz munosabatda bo'lishlari yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Jamiyat tarkibidagi boshqarma, korxona va tashkilotlarda yoqilg'i-moylash resurslarini saqlanishi, taqsimlanishi, tashilishi, sarflanishi jarayonini doimiy nazoratga olish, bunga taalluqli hujjatlarning o'z vaqtida rasmiylashtirilishi ta'minlash, o'lchov qurilmalarining yaroqli va soz holatini ta'minlash yuzasidan chora tadbirlar ko'rish, raqamli texnologiyalarni joriy etgan holda yangi nazorat mexanizmlari ishlab chiqish;

Jamiyat tarkibidagi korxona va tashkilotlarda smenali ish rejimida ishlovchi ishchi-xodimlarning davomatini nazoratga olish va bu jarayonni raqamlashtirish, ularga tegishli rasmiylashtirilgan hujjatlarga ko'ra hisoblangan ish haqi orasida yuzaga keladigan tafovutlar sababini o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish yuzasidan choralar ko'rish;

Barcha vokzal hududiga tegishli amalda foydalanilayotgan ob'ektlarni o'z vaqtida inventarizatsiyadan o'tkazish, foydalanishga berilgan ko'chmas mulk va boshqa ob'ektlarning ijarasi uchun shartnomalar qiymatini ijaraga beruvchining barcha xarajatlari hamda ijara to'lovining eng kam stavkalarini hisobga olgan holda belgilash, shartnomalarda oldindan to'lov yoki kafolat mexanizmlarini joriy etish, ijaraga berish hamda mijozlarga xizmat ko'rsatishdan tushadigan tushumlarni o'z vaqtida rasmiylashtirish va naqd pul aylanmasini kamaytirish borasida amaliy choralar ko'rish;

Barcha faoliyat yuritayotgan hamda yangi ishga qabul qilinayotgan rahbar va ishchi-xodimlarga manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyasini to'ldirishlarini va bunda yolg'on ma'lumot berganlik uchun javobgarlik choralari yuzasidan tushuntirish ishlari olib borilishini ta'minlash;

Jamiyat tarkibidagi korxona va tashkilotlaridagi xarid jarayonlarida shartnomalarning bir xil IP orqali va bir kontragent bilan tez-tez tuzilishi holatlari sabablarini bartaraf etish chora-tadbirlarini amalga oshirish.